



# O'ZMU XABARLARI

## ВЕСТНИК НУУЗ

### АСТА NUUZ

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY  
UNIVERSITETI ILMIIY JURNALI

**JURNAL**  
**1997 YILDAN**  
**CHIQA**  
**BOSHLAGAN**

**2023**  
**1/3**

**Ijtimoiy-**  
**gumanitar**  
**fanlar turkumi**

Bosh muharrir:

**MADJIDOV I.U.** – t.f.d., professor.

Bosh muharrir o'rinbosari:

**ERGASHOV Y.S.** – f.m.f.d., professor.

Tahrir hay'ati:

**Sagdullayev A.S.** – t.f.d., akademik.

**Ashirov A.A.** – t.f.d., prof.

**Balliyeva R.** – t.f.d., prof.

**Malikov A.M.** – t.f.d., prof.

**Yusupova D.Y.** – t.f.d., prof.

**Murtazayeva R.H.** – t.f.d., prof.

**Mo'minov A.G.** – s.f.d., prof.

**Nishonova O.J.** – f.f.d., prof.

**Abdulayeva N.B.** – f.f.d., prof.

**Madayeva Sh.O.** – f.f.d., prof.

**Tuychiyev B.T.** – f.f.d., prof.

**Utamuradov A.** – f.f.n., prof.

**Muxammedova D.G.** – psix.f.d., prof.

**Boltaboyev H.** – fil.f.d., prof.

**Rahmonov N.A.** – fil.f.d., prof.

**Shirinova R.X.** – fil.f.d., prof.

**Siddiqova I.A.** – fil.f.d., prof.

**Sa'dullayeva N.A.** – fil.f.d., dots.

**Arustamyan Y.Y.** – fil.f.d., dots.

**Pardayev Z.A.** – fil.f.f.d., PhD.

<b>Tashmetov T.</b> Global o'zgarishlar davrida barkamol yoshlarni shakllantirishning shart-sharoitlari va g'oyaviy omillari .....	171
<b>Tilayev E.</b> Axborot texnologiyalarining globallashuvi sharoitida yoshlarda ozod shaxs ko'nikmalarini tarbiyalash .....	175
<b>Turayeva N.</b> Improving the efficiency of using media content technology in teaching foreign languages in higher military educational institutions .....	178
<b>Turaxanov A.</b> Oliy o'quv yurtlaridagi harbiy ta'lim fakulteti kursantlarida jismoniy-taktik ko'nikmalarni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari va nazariy-metodologik asoslari .....	181
<b>Turgunbayev T.</b> Harbiy ta'limda milliy identiklik tarbiyasi asosida talabalarda (kursantlarda) vatanparvarlikni rivojlantirish ta'lim texnologiyasi .....	184
<b>Turgunova A.</b> Zamonaviy gerontopedagogik yondashuvlar .....	187
<b>Usmanov M.</b> Mif va mifologiya amaliy hayot mahsuli sifatida .....	191
<b>Utanova U.</b> Ijtimoiy taraqqiyot va madaniy vorisiylik .....	194
<b>Fayziev V., Qorayev S.</b> Innovatsion ta'limi klasteri asosida talabalar ekologik madaniyatini rivojlantirish modeli .....	197
<b>Xaydarova A.</b> Virtual realikka oid zamonaviy yondashuvlar tendensiyasi .....	201
<b>Xolmatova Z.</b> O'quv jarayonida foydalaniladigan pedagogik diagnostika funktsiyalari va tamoyillari .....	204
<b>Xolmurodova L.</b> Oliy ta'limda noorganik kimyo fanini o'qitishda birikmalarning invariantli, subinvariantli va variativ komponentlarini xossa xususiyatlarini turli xil tamoyillarining nazariy tahlili .....	207
<b>Xo'jamberdiyeva Sh.</b> Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishning zaruriyati .....	210
<b>Xujamov I., Odinaeva N.</b> Demografik omillarning mamlakat hududlaridagi ta'lim xizmatlariga bo'lgan talabga ta'siri .....	213
<b>Эгамбергенов И., Абдулхаликова Н.</b> Педагогические методики формирования инженерного мышления студентов педагогических ВУЗов (на примере предмета физика) .....	217
<b>Ernazarova R.</b> Stressogen vaziyatlarda talabalar xulq-atvori determinantlarining namoyon bo'lish xususiyatlari .....	220
<b>Yuldashev F.</b> Forobiyning musiqa nazariyasiga oid qarashlari .....	225
<b>Filologiya</b>	
<b>Abdumuratova S.</b> Tarjima nazariyasining boshqa fanlar bilan aloqasi .....	228
<b>Abduraximova N.</b> His-tuyg'u kategoriyasi tilshunoslikning o'rganish ob'yekti sifatida .....	231
<b>Azamov O.</b> Tilshunoslikda Zoonim komponentli frazeologik birliklarni ilk o'rganish tamoyillari va tahlil usullari .....	234
<b>Begmatova R.</b> Lingvistik kooperatsiya va xushmuomalalik hodisalarining nazariy tahlili .....	237
<b>G'aybullayeva D.</b> Frazeologiya: shakllanishi, rivojlanishi va kontseptsiyalari .....	240
<b>Do'stmamatova N.</b> O'zbek va rus tillarida shaxs ifodalovchi graduonimlar .....	244
<b>Jurayeva G.</b> Jadid ta'lim falsafasida til masalasi va uning siyosiy-strategik ahamiyati .....	247
<b>Zufarov I.</b> Teleboshlovchilarning lisoniy mas'uliyati .....	250
<b>Yo'ldosheva M.</b> Portretning tashqi qiyofasini tasvirlovchi lisoniy birliklarning tarjimada berilishi .....	253
<b>Komilova G.</b> Jek Keruakning asaridagi lingvopoetik vositalarning qo'llanilishi .....	257
<b>Qayumova D.</b> Uzun tumani o'zbek shevalarida oziq-ovqat nomlari .....	260
<b>Qodirova Z.</b> Reklama tilining lingvomadaniy va sotsiopragmatolingvistik xususiyatlari .....	263
<b>Qurbonov A.</b> XX asr o'zbek adabiy manbashunosligi .....	265
<b>Mavlyanova N.</b> Dramatik bola-qahramon: estetik hodisalarining mavjudligi, o'zaro bog'liqligi va farqlanishi .....	268
<b>Mamatkulova F., Ataniyazova D.</b> Linguocultural peculiarity of english and uzbek paremiological units with food components .....	271
<b>Murotov H.</b> Reklama matnlarining lingvopragmatik funktsiyasi .....	274
<b>Muhammadzokirova M., Dinaliyeva A.</b> The problem of racism in "White teeth" by Zadie Smith .....	278
<b>Ochilova M.</b> Musiqa va raqs sohasida qo'llaniladigan terminlarning elektron axborot bazasini yaratish .....	282
<b>Sobirova N.</b> Xorazm vohasida baxshi ijrochiligi genezisi .....	285
<b>Soliyeva M.</b> The role of pragmatics in the field of linguistics .....	288
<b>Turayeva M.</b> Functional aspect of lexical interference .....	291
<b>Tukhtayeva F.</b> Theoretical and methodological foundations of imagology .....	294
<b>Хатамова Д.</b> Специфика развития современной литературоведческой терминосистемы .....	297
<b>Erdanova S.</b> Interpretation of the concepts of "Pul", "Деньги" and "Money" in the theory of the concept field .....	300
<b>Eshkobilova F.</b> O'zbek va ingliz bolalar folklorining lingvokulturologik xususiyatlarini qiyosiy – tipologik tahlili .....	303



*Nilufar DO'STMAMATOVA,*

*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti erkin tadqiqotchisi*

*E-mail: [ndustmamatova@gmail.com](mailto:ndustmamatova@gmail.com)*

*O'zDJTU professori, f.f.d., X.Samigova taqrizi asosida*

#### PERSONAL EXPRESSIVE GRADUATION NAMES IN UZBEK AND RUSSIAN LANGUAGES

Аннотация

This article discusses the phenomenon of graduonymy, which is considered one of the new linguistic problems in linguistics, as well as related terms and graduonymic lexemes used to designate a person in the Uzbek and Russian languages, which belong to different language families. In addition, the article provides a comparative analysis, statistical data from the lexicographic point of view of the dictionaries of synonyms created in these languages, as well as synonymic series, graduonymic units with their normative-distinctive indicators.

**Key words:** graduonymy, lexicography, gradoseme, opposition, gradation, lexeme, semantics, pragmatics, dominant.

#### ГРАДУОНИМЫ ДЛЯ ОБОЗНАЧЕНИЯ ЛИЧНОСТИ В УЗБЕКСКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В данной статье рассмотрено явление градуонимии, считающееся одной из новых лингвистических проблем в языкознании, а также связанные с ним термины и градуонимические лексемы, применяемые для обозначения личности в узбекском и русском языках, которые относятся к разным языковым семьям. Кроме того, в статье приводится сравнительный анализ, статистические данные с лексикографической точки зрения словарей синонимов, созданных в этих языках, а также синонимические ряды, градуонимические единицы с их нормативно-различительными индикаторами.

**Ключевые слова:** градуонимия, лексикография, градосема, оппозиция, градация, лексема, семантика, прагматика, доминанта.

#### O'ZBEK VA RUS TILLARIDA SHAXS IFODALOVCHI GRADUONIMLAR

Аннотация

Ushbu maqolada hozirgi kunda tilshunoslikdagi yuzaga chiqayotgan lingvistik muammolardan biri hisoblangan graduonimiya hodisasi, u bilan bog'liq atamalar, turli til oilalariga mansub o'zbek va rus tillarida shaxs ifodalash uchun qo'llaniladigan graduonimik birliklar chog'ishtirma tahlilga tortilgan. Shu bilan bir qatorda ushbu tillarda yaratilgan sinonimlar lug'atlari, ularda uchraydigan sinonimik qatorlar, graduonimik birliklar, me'yoriy jihatdan farqlanuvchi ko'rsatkichlar borasida leksikografik nuqtai nazardan statistik ma'lumotlar ham o'z aksini topgan.

**Kalit so'zlar:** graduonimiya, leksikografiya, gradosema, oppozitsiya, darajalanish, leksema, semantika, pragmatika, dominant.

**Kirish.** O'tgan asr ikkinchi yarmidan boshlab ko'plab tillarda urf bo'lgani kabi o'zbek tilshunosligida ham lug'aviy graduonimiya (darajalanish) hodisasi ko'plab muhokamalar markazida bo'lmoqda. Tilshunoslikning dolzarb masalalari sifatida bu kabi fanda aniqlangan turli yangi yo'nalishlar olimlar va tadqiqotchilar tomonidan keng ko'lamdagi tadqiqot markazidir. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada avvalo o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir"[1].

Maqolaning asosiy mavzusi bo'lgan shaxsni ifodalash birliklari borasida o'zbek va rus tillarida bir qator graduonimiya hodisalari kuzatiladi, shu sabab ushbu birliklarni yosh tushunchasidan boshlasak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Sotsiologik tadqiqotlarga ko'ra, shaxsni ifodalovchi gradual birliklar yosh guruhlariga ajratilishi biologik asoslarga ega bo'lib, ko'p hollarda ular jamiyat, madaniyat, til vositasida aks ettiriladi. Har bir milliy va madaniy muhitdagi yosh konseptining umumiyligi barcha tillar uchun birlamchi xususiyatlari, ya'ni yosh tushunchasi bolalik, yoshlik, yetuklik, keksalik kabi asosiy davrlar negizida shakllantiriladi. Shu bilan bir vaqtda shaxsni ifodalash yosh → o'rta yosh →

keksa//молодой → среднего возраста → пожилой so'zlari yordamida qo'llanilishini ham ta'kidlash joiz. Bu parallel qatorlarda oraliq uchinchi o'zbek tilida o'rta yosh birikmasi rus tilida среднего возраста so'z birikmasi sifatida o'z ifodasini topgan va qator uchlarini oppozitsiya munosabatiga shakllandi. Shaxsni ifodalovchi yosh shkalalari ham o'zbek va rus tillarida turli yosh lug'aviy semantikasini o'z ichiga oladi. Turli oila tillariga mansub bo'lgan o'zbek va rus tillarida yoshning eng ko'p qo'llanilish shakllari bolalik//детство va yoshlik//молодость tushunchalari. Ular bilan bog'liq turg'un xususiyatlar:

bolalik//детство davriga rivojlangan ko'nikma/malakalarning mavjud emasligi, biror narsaga muqasidan ketishlik umumiy belgi hisoblansa, o'zbek tilida bolalik//детство tushunchasi baxtilik, aybsizlik, beg'amlik, soddalik, rus tilida esa qo'shimcha ravishda jozibalilik, sog'lik, xushchaqchqlik belgilari bilan xarakterlanishi;

yoshlik//молодость davriga harakatchanlik, tetiklik, sog'lik, kuch, yengiltaklik, tajribasizlik umumiy jihat hisoblansa, o'zbek tilida yoshiga xos aqliy qobiliyatlar, tashqi va jismoniy ko'rinish, kuch, sog'lik, go'zallik kabi xususiyatlar, ruslarda beg'amlik, mustaqillik, balog'at, fuqarolik huquqlariga ega bo'lishlik jihatlari;

yetuklik//зрелость davriga jismoniy va aqliy rivojlanish to'liqligi, ortib borishi;

keksalik//старость davriga charchoq, kuchsizlanish kabi umumiy xususiyatlar umumiy jihatlar hisoblanadi. Shu yoshga xos bo'lgan jismoniy xususiyatlar borasidagi tasavvurlar turlicha: o'zbek tilida tajribalilik, donolik kabi ijobiy xususiyatlar, rus tilidagi birgina пенсионер so'zi vositasida ushbu yoshdagilarning umumiy jihatini belgilab beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

Yosh tushunchasi barcha tilda birlamchi hisoblanadi, zero uning asosida yosh semantikasining assotsiativ aloqalari, baholash kabi konnotasiyalarga bevosita bog'liqlik kuzatiladi. Pifagor rivojlanishning yosh bosqichlarini bahor (tug'ilishdan 20 yoshgacha), yoz (20-40 yosh), kuz (40-60 yosh), qish (60-80 yosh) kabi davrlarga ajratgan bo'lsa, Alisher Navoiy o'z asarlarida inson umrini bolalik, yoshlik (navqironlik), o'rta yosh, keksalik qismlariga taqsimlagan holda qo'llagan.

Hozir yosh davrlari xalqaro qabul qilingan V.Kvinn tasnifiga ko'ra ajratiladi:

Ko'rsat kichlar	O'zbek tilidagi birliklar[4]	Ko'rsat kichlar	Rus tilidagi birliklar[5]
+5	Mishiqlik (yosh, go'dak, g'o'r)	+5	Сопливый (ещё очень молодой и неразумный)
+4	Juda yosh	+4	Молоденький (очень молодой)
+3	G'o'r (hayot tajribasi kam, turmush qiyinchiliklarini ko'rman)	+3	Желторотый (молоденький, ещё неопытный в жизни)
+2	Bo'z (endigina kuchga to'lib kelayotgan, turmush achchiq-chuchugini totmagan, xom)	+2	Зелёный (неопытный вследствие молодости)
+1	yoshroq	+1	Юный (молодой, не взрослый)
0	Yosh (qari emas, navqiron)	0	Молодой (от отрочества до зрелых лет)
	Yosh emas		немолодой (зрелого возраста, средних лет)
	Qari emas		нестарый (сравнительно молодой, средних лет)
	qari/qariya (ancha yoshga borgan, qartaygan, keksa/qarigan kishi)		старый (достигший старости)
-1	keksa (uzoq yashab katta yoshga etgan, umrining oxirgi bosqichini yashayotgan, qari)	-1	пожилой (немолодой, с признаками приближающейся старости)
-2	Chol (qari er kishi, qariya, keksa, mo'ysafid)	-2	Преклонный (приближающийся к глубокой старости)
-3	Juda qari	-3	престарелый (очень старый)
-4	Boboy (qari kishi, qariyalarga kibr aralash murojaat, qartaygan)	-4	дряхлый (слабый, немощный от старости)

Shaxsni ifodalovchi yosh shkalalarining tashkil etuvchi birliklari o'sib boruvchi, ya'ni dinamik xususiyatga ega, chunki bu jihat g'oyaviy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy qadriyatlar asosida shakllanadi hamda o'zbek tili lug'aviy tizimida bolalik, yoshlik, yetuklik/o'smirlik, keksalik, rus tilida detstvo, otrочество, молодость/юность, зрелость, старость asosiy yosh davrlari ajratiladi. Farqli jihati shundaki, rus tili izohli lug'atlarida otrочество leksemasi bolalik va yoshlik o'rtasidagi davr hisoblansa, o'zbek tilida yoshlik semasini anglatadi.

O'simlikning yoshini anglatuvchi xom, g'o'r, dumbul//незрелый, неспелый, зелёный sinonimik qatori ko'chma ma'noda yoshga nisbatan g'o'r bola//зелёный юнец tarzida qo'llaniladi. Молодой dominanta so'zli молодой, молоденький, юный, несовершеннолетний, зелёный, ранний ma'nodosh so'zlarning qatorini N.A.Abramovning lug'atida uchratish mumkin.

Keksa yoshli shaxslar o'zbek tilida qari/keksa leksemalari yordamida ifodalanadi hamda mo'ysafid → oqsoqol → qari/qariya → keksa → chol → boboy graduonimik qatorini hosil qiladi. Bunda ushbu qator me'yoriy birligi chol so'zi hisoblanadi: Boboy duo qildi, degin. A. Qodiriy, Kichik asarlar.

Qari, keksa leksemalari faqatgina inson hamda jonivorlarga nisbatan qo'llaniladi, predmetlarga nisbatan esa eski, qo'hna va unga ma'nodosh bo'lgan paradigmalar ishlatiladi: Yangini eski saqlar. Maqol.

Shaxs yoki predmetning yoshini ifodalashda rus tilida старый leksemasi ko'pincha katta yoshdagi shaxslar, ba'zi

Go'daklik davri//младенческий возраст – tug'ilishdan to 3 yoshgacha;

Erta bolalik//раннее детство – 3 yoshdan 6 yoshgacha;

Bolalik//детство – 6 yoshdan 12 yoshgacha;

O'smirlik//подростковый (юношеский) возраст -12 yoshdan 18 yoshgacha;

Yoshlik//молодость – 18 yoshdan 40 yoshgacha;

Yetuklik//зрелый возраст – 40 yoshdan 65 yoshgacha;

Keksalik//пожилой возраст – 65 yoshdan yuqori[2].

Yosh//молодой dominantaga ega sinonimik qator quyidagi paradigmalaridan iborat: yosh, yoshroq, bo'z, g'o'r, juda yosh, mishiqlik/молодой, молоденький, юный, несовершеннолетний, зелёный, ранний, сопливый. D.N.Ushakov lug'atidagi сопливый[3] sifati semantik jihatdan yaqin bo'lgan yosh-qari//молодой-старый paradigmalariga birlashgan graduonimik qator jadvaliga e'tibor qaratamiz:

hollarda esa predmetlarga nisbatan ham qo'llaniladi. Ushbu so'zning shaxsiga nisbatan sinonimik qatori старый, престарелый, преклонный leksemalari bo'lsa, predmetga nisbatan старый, ветхий, дряхлый, древний/старомодный, устарелый, допотопный/прежний, старый sinonimik qatori shakllanadi.

A.Hojievning sinonimlari lug'atiga asosan keksa/qari sinonimlari mavjud bo'lib, bu so'zlar ko'p yil yashagan, organizmining faoliyati zaiflashish davriga o'tganligi, yoshning aksi ma'nolarini berishi, bunda qari ko'p hollarda salbiy ottenka bilan qo'llanilsa, keksa ijobiy ottenkaga ega ekanligi, qari leksemasining birikmalari ham o'ziga xos salbiy ma'no kasb etuvchi so'z birikmalarini hosil qilishi (qari qiz, qari tulki)[6] keltirilgan. Bundan tashqari, keksa qari birikmasi katta odamlardek fikr yuritadigan, mahmadona bolalarga nisbatan ham qo'llanilsa, qariqiz ikki yillik begona o'tni va kuzgi qovun navini anglatadi. Qari-qartang birikmasi turli yoshdagi qariyalar, chollar, keksa odamlarga nisbatan qo'llaniladi: Katta suv bo'yiga qurilgan choyxonadagi qari-qartang ham ... ashula tinglamoqda. S.Azimov. Oppoq tong qo'shig'i.

- **Tadqiqot metodologiyasi.** O.Bozorov chaqaloq → go'dak → bola → o'smir → yigit → erkak → chol[7] ma'noviy nomlanishni ko'rsatgan bo'lsa, biz qo'shimcha ravishda o'zbek tilidagi o'spirin leksemasini kiritdik, chunki o'spirin balog'at yoshiga etmagan yosh yigit ma'nosini anglatadi, ikki tomonidagi leksemalardagi belgi biroz farqlanadi: bola – hali voyaga etmagan; o'smir – balog'at yoshiga o'tishdagi davrni anglatadi.

Ko'rsat kichlar	O'zbek tilidagi birliklar	Ko'rsat kichlar	Rus tilidagi birliklar
0	ninni (yangi tug'ilgan bola, chaqaloq)	0	грудник, новорожденный, младенец
1	chaqaloq (bola, farzand/yangi tug'ilgan bola, go'dak)	1	малыш / малышка, малютка
2	go'dak (ona sutni og'zidan ketmagan yosh bola)	2	ребёнок (ранний детский возраст)
3	bola (hali yosh, voyaga etmagan)	3	мальчик / девочка

	qizaloq / qizcha (qiz bola, yosh qiz)		
4	o'spirin (balog'at yoshiga etmagan yosh yigit)	4	несовершеннолетний / несовершеннолетняя
5	o'smir bola / o'smir qiz (bolalikdan balog'at yoshiga o'tishdagi, 12-16 yoshli)	5	подросток (мальчик или девочка в возрасте от 12 до 16-17 лет)
6	yigit (yosh erkak, yosh kishi) qiz (balog'atga etmagan ayol)	6	парень, юноша (неженатый, молодой юноша) девушка (лицо, достигшее половой зрелости, но еще не вступившее в брак)
7	erkak (erkak jinsiga mansub kishi, er) ayol (qizga nisbatan yetuk yoshdagi shaxs)	7	мужчина (зрелого возраста, физической/духовной зрелости) женщина (зрелая, в противопоставление девочке)
8	chol (qari er kishi, keksa, mo'ysafid) kampir (yoshi ulg'aygan, keksa, qari xotin)	8	starik (mужчина, достигший старости) staruxa (женщина, достигшая старости)

Go'dak leksemasi ba'zi hollarda yetarli hayot tajribasiga ega bo'lmagan, g'o'r, xom insonga nisbatan ham qo'llanilishi kuzatiladi: Ustozdek qattiqqo'l inson yosh va g'o'r shogirdining bu taxlit go'daklarcha "isyoncha" sig'a e'tibor ham qilmadi. X.Do'stmuhammad// Влюблялся как ребенок, и любил как ребенок, и верил во все шутовства жизни. В. А.Соллогуб. Большой свет.

Chol-kampir birikmasi o'zbek tilida nafaqat keksaygan ota-onaga, balki er-xotinga nisbatan qo'llanilsa, bola-chaqa/bola-baqra birikmasi xotin hamda bolalarga nisbatan ham qo'llaniladi.

Yosh leksemasining pragmatik ma'nosiga to'xtaladigan bo'lsak, yetarli tajribaga ega bo'lmagan, tajribasiz ma'nosini beradi, masalan: Abulqosim yosh Alisherni ham, Husayn Boyqaroni ham Mashhadga olib ketadi.

Yuqoridagi guruh so'zlari ijobiy va salbiy ottentalarga ega, nosimmetrik, chunki ijobiy ottentalardan ustunlik qiladi. O'zbek tilidagi leksemalarda emas to'liqsiz fe'li hamda rus tilidagi sifatlarda ne- prefiksli leksemalar bilan ortib/kamayib boruvchi gradatsiya hosil qiladi, bundan tashqari darajalanish qatorida emas to'liqsiz fe'li va ne- prefiksli leksemalar yordamida teng ravishda leksemalar hosil qilingan.

Kam, endigina, ancha, uzoq, katta, juda gradosemaları o'zbek tilidagi, очень, ещё, сравнительно, глубокой gradosemaları rus tilidagi leksemalar belgisiga ta'sir o'tkazadi. Kam - so'zi/oldqo'shimchasi fors tilidan olingan bo'lib, talab, me'yor yoki odatdagidan nisbatan miqdori yetarli bo'lmagan, oz ma'nolarini anglatadi. O'TILda shu qo'shimcha yordamida hosil qilingan va aynan yuqoridagi ma'noni ifodalaydigan 35 ta ijobiy va salbiy ma'nodagi so'zlar mavjud.

- **Tahlil va natijalar.** A.Hojievning "O'zbek tilining sinonimlari lug'ati" 3 693 ta so'zni o'z ichiga olgan 865 ta sinonimlar qatorini tashkil etib, alifbo tartibida joylashgan, harflar kesimiga ko'ra A, B, K, T, Q harflariga ko'proq sinonimik qatorlar mavjudligi, so'z turkumlariga ko'ra: ot/sifatlarga - 532 ta (61.5%), fe'llarga - 247 ta (28.55%), boshqa so'z turkumlariga oid so'zlar - 86 ta(9.94%) ekanligi aniqlandi. Lug'atdagi graduonimik qatorlardagi 2 va 3 uzvli qatorlar soniga ko'ra 48.78%ni, ko'p uzvli qatorlar 51,22%ni tashkil etadi, hatto 30 uzvli so'z (juda) aniqlanganligi o'zbek tilining boy tarixi, madaniyatidan darak beradi.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zR Prezidentining "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-son Farmoni // Xalq so'zi, 2019, 22 oktyabr. №218 (7448).
2. Квинн В. Прикладная психология. — СПб: Питер, 2000. — 560 б.
3. Толковый словарь современного русского языка / Д.Н.Ушаков.— М.: Аделант, 2014. — 800 б. — ISBN 978-5-93642-345-1.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. A.Madvaliev tah. 5 jildli. — T.: O'zME, 2006.
5. Абрамов Н. Словарь русских синонимов и сходных по смыслу выражений. М.: Русские словари: АСТ: Астрель: Хранитель, 2006.
6. Hojiev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati.—T.: O'qituvchi, 1974.
7. Bozorov O. O'zbek tilida darajalanish. Fil.fan.nomz. ... diss.—T., Fan, 1995.
8. Словарь-тезаурус синонимов русской речи. Бабенко Л.Г. АСТ-Пресс, 2008.

L.G.Babenkoning "Словарь-тезаурус синонимов русской речи" qo'llanmasida 39 246 ta ifoda aks ettiruvchi 40 000 so'zdan iborat 7 528 ta sinonimik qator joy olgan. Graduallashishga ko'ra 16 ta semantik soha hamda 430 ta ideografik guruh va guruhchalarga bo'lingan[8]. O'zbek tilida bu kabi struktur tilshunoslik tamoyillariga ko'ra tuzilgan lug'atlar faqatgina "O'zbek tilining ma'nodosh so'zlar lug'ati", "O'zbek tilining darajalanish o'quv lug'ati" mavjud. Sinonimik qator yadrosi bir necha semalardan tarkib topgan, qator a'zolari esa birday ahamiyatlidir. Ammo nutqning ta'sirchanligini oshirish yoki kamaytirishda qatoridagi dominant va unga yondosh so'zlarning ahamiyati katta. Lug'aviy dominantaning semasi sinonimik qatorning umumiy ma'nosiga qisman yoki to'liq mos kelishidir. Dominanta sinonimik qator chegarasini, paradigma amal qilishi mumkin bo'lgan rivojlanish ko'lamining taxminiy chegarasini belgilaydi.

**Xulosa va takliflar.** Graduonimiyaning mazmun-mohiyati u bilan aloqador hamda yondosh tushunchalar izohi bilan to'laqonlik kasb etadi, zero ular graduonimiyaga yondosh tushunchalar uning bosqichlar va pog'onalariga bo'linishini, gradual shkalaning joylashishida ma'lum bir ko'rinishdagi bosqichma-bosqichlikni, ma'no va emotsional jihatidan ortib borish darajasini ifoda etadi. Mazkur tushunchalar munosabati graduonimiyaga hodisasining asosiy va yordamchi gradual leksikadan iborat ekanligini asoslaydi hamda uzviy bog'liqlikda qo'llaniladigan gradual munosabat, gradatsion shkala, graduator, gradosema kabi tushunchalar izohi graduonimiyaning ta'rifi, mazmuni, qamrovi, til tizimida tutgan o'rni belgilaydi.

Graduonimiyaga hodisasi o'zbek va rus tillarida nafaqat shaxs, balki narsa-buyum, voqea-hodisalarni ifodalovchi otlar orasida ham kuzatiladi, chunki fazodagi turli jismlar, harakat va holatlar insonning ongida uning tasavvuriga asosan, ya'ni vizual yoki xayolan inson shaxs, narsa-buyum, voqea-hodisa nomlarini atashdan oldin idrok etgan ko'rinishiga mos ravishda aks ettiradi. Yana shuni ta'kidlash kerakki, darajalanish har bir tilning o'ziga xos unikalialari, xususiyatlari, milliyatini ifodalash, tarjima jarayonida esa aniq va talab darajasidagi mazmuni yoritib berish uchun xizmat qiladi.